

MA’MURIY JAZO TIZIMIDA MAJBURIY JAMOAT ISHLARI INSTITUTI: HUQUQIY TABIATI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Aliyarov Sherzod Muratovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20343583>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma’muriy jazo tizimidagi majburiy jamoat ishlari institutining ijtimoiy-huquqiy tabiati, o‘ziga xos xususiyatlari va huquqni qo‘llash amaliyotidagi muammolari tahlil qilingan. Jazoni ijro etishda inson qadr-qimmatini kamsitmaslik, qisqa muddatli ishlar uchun an’anaviy mehnat shartnomalari o‘rniga fuqarolik-huquqiy yoki elektron shartnomalarni joriy etish, shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan mazkur jazoning moslashtirilgan muqobil turlarini qo‘llash masalalari ilmiy asoslab berilgan. Bundan tashqari, jazoni o‘tash ustidan nazoratni ta’minlashda korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etish va samaradorlikni oshirish maqsadida tizimga “Smart Policing” (aqlli nazorat) va geolokatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: ma’muriy jazo, majburiy jamoat ishlari, insonparvarlik tamoyili, voyaga yetmaganlar javobgarligi, ma’muriy majburlov, muqobil jazo, elektron shartnoma, Smart Policing.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-правовая природа, специфические особенности и практические проблемы правоприменения института обязательных общественных работ в системе административных наказаний. Научно обоснованы вопросы недопущения унижения человеческого достоинства при исполнении наказания, внедрения гражданско-правовых или электронных договоров вместо традиционных трудовых контрактов для краткосрочных работ, а также применения адаптированных альтернативных видов данного наказания в отношении несовершеннолетних. Кроме того, выдвинуты предложения по внедрению в систему технологий «Smart Policing» (умный контроль) и геолокации в целях устранения коррупционных рисков и повышения эффективности контроля за отбыванием наказания.

Ключевые слова: административное наказание, обязательные общественные работы, принцип гуманизма, ответственность несовершеннолетних, административное принуждение, альтернативное наказание, электронный договор, Smart Policing.

Abstract. This article analyzes the socio-legal nature, specific features, and practical law enforcement problems of the institution of compulsory community service within the system of administrative punishments. It scientifically substantiates the issues of preventing the degradation of human dignity during the execution of punishment, introducing civil-legal or electronic contracts instead of traditional labor contracts for short-term work, and applying adapted alternative forms of this punishment to minors. Furthermore, proposals are put forward to integrate “Smart Policing” and geolocation technologies into the system to eliminate corruption risks and enhance the effectiveness of monitoring the execution of the sentence.

Keywords: administrative punishment, compulsory community service, principle of humanism, juvenile liability, administrative coercion, alternative punishment, electronic contract, Smart Policing.

Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatning yuksalib borishi davlat majburlov choralarini ham bosqichma-bosqich insonparvarlashtirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda huquqbuzarni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatish va qayta tarbiyalash mexanizmlariga ko'proq ustuvorlik berilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ma'muriy jazo tizimidagi majburiy jamoat ishlari instituti muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jazo chorasi ma'muriy qamoqqa muqobil hisoblanib, o'zida nafaqat jazolash, balki huquqbuzarga profilaktik va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish xususiyatlarini ham mujassam etgan.

Ilmiy doiralarda ushbu institutning ijtimoiy-huquqiy samaradorligi yuzasidan turli xil yondashuvlar mavjud. Xususan, S.I. Onishenko va S.L. Melnik o'z izlanishlarida majburiy jamoat ishlarini tizimli baholagan. Ularning e'tirof etishicha, bu chora, birinchidan, jazoni ijro etish muassasalaridagi ortiqcha yuklamani kamaytirishga xizmat qilsa; ikkinchidan, shaxsni jamiyatdan ajratish (qamoqqa olish) bilan bog'liq salbiy oqibatlarining oldini oluvchi ta'sirchan vositadir¹.

Biroq mazkur institutning samaradorligini faqatgina jazoni ijro etish muassasalaridagi yuklamani kamaytirish nuqtai nazaridan baholash to'g'ri emas. Uning negizida ancha muhimroq ijtimoiy maqsad – huquqbuzarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish orqali uni qayta tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish g'oyasi mujassamdir.

Shu bilan birga, mazkur jazo turining huquqiy tabiatini o'rganish jarayonida uning majburiy mehnatni taqiqlovchi konstitutsiyaviy normalarga qay darajada mos kelishi ilmiy jihatdan bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xususan, I.V. Timoshenko o'z izlanishlarida ushbu muammoga alohida to'xtalib o'tgan. U majburiy jamoat ishlarining ma'muriy majburlov tizimidagi o'rnini tahlil qilar ekan, mazkur jazoning qonuniyligini (legitimligini) aynan majburiy mehnatga qo'yilgan taqiqlar bilan o'zaro munosabati nuqtai nazaridan ilmiy asoslab berishga uringan². Bu borada boshqa bir tadqiqotchi O.N. Dyadkinning ilmiy yondashuvi biroz o'zgachadir. Uning fikricha, jazoning ushbu turini bevosita jamoatchilik ko'z o'ngida (masalan, ko'chalarni obodonlashtirish ishlariga jalb qilish orqali) ijro etish huquqbuzarning insoniy qadr-qimmatini kamsitilishiga olib kelish xavfini tug'diradi. Bu esa, o'z navbatida, jazoning axloqan tuzatish maqsadiga muayyan darajada zid kelishi mumkin³.

Biz ham O.N. Dyadkinning ushbu xavotirlarini qisman qo'llab-quvvatlaymiz. Ma'lumki, ma'muriy huquqbuzarlik ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra jinoyat hisoblanmaydi. Binobarin, qo'llanilayotgan jazo chorasi inson qadr-qimmatini kamsituvchi yoki tahqirlovchi tus olmasligi o'ta muhimdir. Shundan kelib chiqib, sudlar tomonidan mazkur jazoni tayinlashda huquqbuzarning roziligini olish yoki uning kasbiy malakasi va layoqatiga mos keladigan muqobil jamoat ishlarini taklif qilish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga to'la hamohang bo'ladi.

¹ Онищенко С.И., Мельник С.Л. Эффективность административного наказания в виде обязательных работ: социально-правовой анализ // Вестник науки. – 2025. – Т. 2. – №. 12 (93). – С. 637-651.

² Тимошенко И.В. Обязательные работы в общей системе административных наказаний // Северо-Кавказский юридический вестник. – 2013. – №. 2. – С. 88-94.

³ Дядькин О.Н. К вопросу о юридическом закреплении и исполнении административного наказания в виде обязательных работ // Алтайский юридический вестник. – 2024. – №. 3 (47). – С. 90-94.

Shu bilan birga, majburiy jamoat ishlarini ijro etish mexanizmida haligacha qator huquqiy bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Xususan, E.F. Baysaluyeva jazoni o'tash davrida ish beruvchi tashkilot va huquqbuzar o'rtasidagi munosabatlar yuridik jihatdan aniq rasmiylashtirilmayotganiga e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, bu holat amaliyotda tizimli muammolarni yuzaga keltirmoqda va mazkur jarayonni alohida mehnat shartnomalari tuzish orqali tartibga solish zarur⁴.

Milliy qonunchiligimizga, xususan, MJtKning 28¹-moddasiga e'tibor qaratsak, mazkur jazoning o'ziga xos xususiyati namoyon bo'ladi. Unga ko'ra, haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilgan shaxsning ish haqidan 50 foizi ushlab qolinishi qat'iy qoida sifatida mustahkamlangan.

Ushbu jihati bilan O'zbekiston tajribasi ko'plab xorijiy davlatlar amaliyotidan ajralib turadi. Ya'ni, milliy tizimimizda bu jazo faqatgina tarbiyaviy-profilaktik maqsadlarga xizmat qilmay, balki ijtimoiy-kompensatsiya (masalan, aliment to'lovlarini undirish) vazifasini ham bajaruvchi muhim vositaga aylantirilgan.

Shu o'rinda, E.F. Baysaluyevaning yuqoridagi taklifi yuzasidan muqobil yondashuvimizni bayon etishni lozim deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, qisqa muddatli (masalan, 15 yoki 20 soatlik) ma'muriy jazoni ijro etish uchun taraflar o'rtasida to'laqonli mehnat shartnomasini tuzishni talab qilish amaliyotda ortiqcha byurokratik to'siqlarni yuzaga keltiradi.

Bunday murakkabliklarning oldini olish maqsadida, an'anaviy mehnat shartnomasi o'rniga fuqarolik-huquqiy tusdagi soddalashtirilgan kelishuvlar (dalolatnomalar) yoki elektron shartnomalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu mexanizm tizimdagi ma'muriy yuklamani sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur jazo chorasi aynan qanday subyektlarga nisbatan qo'llanilishi masalasi ham alohida e'tiborga molikdir. Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq, majburiy jamoat ishlari muayyan ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarga nisbatan tayinlanmaydi. Xususan, homilador ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar, pensiya yoshidagi fuqarolar hamda harbiy xizmatchilar bundan mustasno qilingan.

V.V. Shvirkov va YE.Y. Kuzminova ushbu jazoning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilar ekan, bu masalaga alohida to'xtalib o'tadi. Ularning qayd etishicha, qonunchilikda belgilangan bunday cheklovlar, eng avvalo, davlatning insonparvarlik prinsipiga asoslanadi. YA'ni, jazoni tayinlashda huquqbuzarning jismoniy imkoniyatlari va ijtimoiy maqomi albatta inobatga olinishi shart⁵.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlarga nisbatan mazkur jazoni qo'llash masalasi esa o'ziga xos murakkabliklarni kasb etadi. I.K. Janmirzayev va A.I. Magomedova voyaga yetmaganlar javobgarligiga oid tizimni tadqiq etar ekan, ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratishgan. Ularning xulosasiga ko'ra, bu toifadagi shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda, bevosita ijtimoiy muhit ichida qayta tarbiyalash eng maqbul va samarali yo'ldir⁶.

Milliy qonunchiligimizda 18 yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan majburiy jamoat ishlarini tayinlash nazarda tutilmagan. Tadqiqotlar davomida olingan xulosalarga tayanib, amaldagi ushbu normani qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Xususan, voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga ziyon yetkazmaydigan va dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtda ado etiladigan qisqartirilgan ijtimoiy ishlarni amaliyotga joriy etish lozim. Bunday yondashuv

⁴ Байсалуева Э.Ф. Обязательные работы как вид административного наказания: некоторые проблемы исполнения // Юридическая наука и правоохранительная практика. – 2020. – №. 1 (51). – С. 15-20.

⁵ Швырков В.В. Особенности обязательных работ как вида административного наказания // IN SITU. – 2022. – №. 3. – С. 37-40.

⁶ Джанмирзаев И.К., Магомедова А.И. Наказание в виде обязательных работ // Вестник юридического факультета Южного федерального университета. – 2020. – Т. 7. – №. 4. – С. 32-36.

o'smirlarning huquqiy ongini shakllantirishda odatiy jarima jazosiga qaraganda ancha samarali natija beradi.

Yana bir dolzarb masala shundan iboratki, majburiy jamoat ishlarini ijro etishni nazorat qilishning an'anaviy usullari bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi. Jazoni o'tayotgan shaxsning belgilangan joyda haqiqatan ham ishlayotganini faqat qog'oz shaklidagi jurnallar yoki mas'ul xodimning bevosita kuzatuv orqali tekshirish korrupsion xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jazoning muqarrarligi tamoyilini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun ma'muriy nazorat tizimini to'liq raqamlashtirish talab etiladi. Bu borada jazoni ijro etish va probatsiya amaliyotiga “Smart Policing” (aqlli nazorat) algoritmlarini, shuningdek, geolokatsiyani qayd etuvchi maxsus mobil ilovalarni tatbiq etish eng maqbul innovatsion yechimlardan biridir. Huquqbuzarning joylashuvini biometrik identifikatsiya yoki masofaviy monitoring qilish orqali nazorat qilish jazodan bo'yin tovlash holatlarini keskin kamaytiradi.